

EHTIYOJII MILLAT":O'ZBEKLAR NIMAGA MUHTOJ?

*Ahliddin Tursunov,
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy
kommunikatsiyalar universiteti talabasi,
tursunovahliddin270@gmail.com
Ilmiy rahbar, O'zJOKU O'zbek tili
va adabiyoti kafedrasи dotsenti, PhD:A.Eshniyazova*

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadidchilik harakatining buyuk namoyondasi Mahmudxo'ja Behbudiyning "Ehtiyoji millat" maqolasi bugungi kun kitobxonasi qarashlari asosida tahlil etiladi. Maqolada ko'tarilgan masalalarning bugungi kundagi ahamiyati haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Jadid, maqola, kitob, ilm, millat, zamonaviy ilm.

Jadidchilik harakatini Turkiston zaminida tashkil va rivoj topishida Mahmudxo'ja Behbudiyning o'rni katta. Mahmudxo'ja Behbudiylar o'zi tug'ilgan va yashagan davrda Turkiston xalqi uchun orzu va armonlarning ro'yobi sifatida ko'ringan. Xalq dardi bilan yashagan jadidchilik otasi mohir publisist sifatida shu iztiroblardan qayg'urib, o'zining badiiy va amaliy harakatlari bilan bu yo'lda sobitqadamlikni ko'rsatdi. O'zbek adabiyoti o'z ibtidosidan beri shu an'ana bilan ajralib turgani hammaga a'yon. Ahmad Yassaviy o'z "Hikmatlar"i orqali boshlab bergen bu usul avlodi Mahmudxo'ja Behbudiylar faoliyatida ham peshqadamlik qildi. Mahmudxo'ja Behbudiylar va boshqa jadidlar fikri-zikrini band etgan muammolar bugun bizni ham o'yga ko'mgan. Bu muammolarning mohiyati muayyan darajada o'zgargan, dunyodagi muvozanatni buzishga qaratilgan yangi xavf-xatarlar, tajovuzkor kuchlar paydo bo'lган.

Behbudiylar ijodining "shoh"i bo'lган "Ehtiyoji millat" maqolasi bugungi kunda ham o'z mohiyatini yo'qotmagan. Xalqning ziyo istamasligi, mutaassib tuzum tarafdori bo'lган ahli Turkiston zamonaviy ilmlardan bebahra

qolayotganini ko'rgan, chuqur anglagan va bundan qayg'uga botgan adib o'z maqolasining ibtidosini ham ana shu ifoda bilan qalamga oladi. Bir tomondan olib qaraganda, johiliyat botqog'iga asta-sekin botib borayotgan Turkiston xalqi jadidlarni suymagani kabi maqolani ham "iliqlik" bilan kutib oladi. Mustamlaka iskanjasida turib bo'lsa-da, millat bolalarini o'qitib, o'zligini tanitib, ma'rifat vositasi-la ozodlikka erishish g'oyasi targ'ib etish aynan shu maqola orqali yaqqol ko'zga tashlanadi. Dunyo sahnida mudom turmoq, ozodlikni saqlab qolmoq uchun ilm o'rganish kerakligini xalqqa yetkazish uchun jon kuydirgan Behbudiyning bu fikrlari barcha zamonlar uchun birday ahamiyatli. Zero, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bugungi islohotlardan ko'zlangan bosh maqsad ham, ulug' millatparvar orzu qilganidek, mamlakat boshqaruvida har bir fuqaro ishtirok eta oladigan mutaraqqiy, ziyo istovchi jamiyatni barpo etishdan iboratdir. Bir narsani qayta-qayta ta'kidlash kerakki, beshikdan to qabrgacha ilm izlash lozim. Ilmsiz millatning yo'q bo'lib ketishi ham hech gap emas. Maqolada 50 yillar oldin (taxminan 1860-1865) turkistonliklar boshqa xalqlar bilan aloqani yo'lga qo'yaganligi achinish bilan tilga olinadi. Xalqimizda "Ayrilganni ayiq yer, bo'linganni bo'ri yer" degan naql bor. Dini, tili, madaniyati bir bo'lgan xonliklarining bir-biriga bo'lgan adovati ularning zalovati bilan yakun topgani hammaga a'yon. Qaniydi, o'sha paytlarda Behbudiyl o'z so'zlari bilan xonlarga ta'sir o'tkazsada, Rusiya qaramligi o'rnatilmasa. Lekin bu tarix. Tarixdan har doim saboq olib yashamoq kerak. "*Va gar tarix sori aylagung mayl, Muni bilgachki, ne ish qildi har xayl. Ne ishdin mamlakat obod bo'ldi, Qayu ishdin ulus barbod bo'ldi.*" Nizomiddin mir Alisher Navoiy qalamiga mansub ushbu satrlar Behbudiyning "Ehtiyoji millat"ida ham o'z aksini topadi. Tarixdan yaxshi xabardor bo'lib, yo'l qo'yilgan xatolarni qaytib takrorlamaslik anglanadi.

"Shoh qonub emas, qonun shoh", -deydilar. Aslida, bu so'zlar yanada to'liqroq. Qonun ham, qonunni bilgan inson ham shaxs. Oddiy xalq o'z qonunlaridan bexabar bo'lsa, hukmron tabaqa tomonidan tahqirlanishi tabiiy holdir. Zamon o'zgargani sari qonunlar ham, odamlar ham unga qarab o'zgarib boradi. Inson jamiyatda o'z o'rnini mustahkamlashi uchun zamona qonunlarini

mukammal o'rganishi zarur. Mustamlaka sharoitida hukmron Rus qonunlarini bilmagani uchun xalq ko'p tashvish chekkani kundek ravshan. Tarixdan ma'lumki, o'lkamizda islom hukmronligi o'rnatilgandan keyin, qonunlar asosan shariat qoidalari asosida ishlab chiqilgan. Rus hukumati esa Turkiston uchun o'z qonunlarini mustamlaka sifatida o'zi xohlagandek tuzgani ham a'yon. Real olib aytilganda o'sha davrlarda qaram o'zbek tashvish va zarar ko'rmasligi uchun aynan shu qonunlarni o'rganishi lozimligi ta'kidlanadi. Bugungi kunda ham qonunlarni yaxshi bilmaslik huquqlarning poymol bo'lishiga, muammoga duch kelganda esa qanday yo'l tutish-u qayerga murojaat qilishni bilmaslikka sabab bo'lmoqda. Shariat va dunyo ilmlari bir daryoning ikki irmog'idi. Unisini o'rganib, bunisini o'rganmasa, bunisini o'rganib, unisini o'rganmasa mukammal ilm sohibi bo'lmaslik aniq. To'rt yil Rusiya dorilfununlarida o'qib, Vatanga qaytgan yoshlar o'z millati manfaatlari uchun xizmat qilishiga Behbudiy qattiq ishongan. Ilmi tolib bir paytning o'zida qonunlar va dindan yaxshi xabardor bo'lsagina ushbu fikrlar to'g'ri bo'ladi. Rusiyaning boshqaruvi organi - Davlat dumasida Turkiston musulmonlaridan vakil bo'lmanligi, din va xalq manfaatlariga xizmat qiladigan turkistonlik bo'lmanligi achinarli holdir. "*Duma nari tursin, sudga va rasmiy mahkamalarg kirib, bizni mudofaa qiladurgan kishimiz yo'q*". Bu satrlar xalqning ahvolini achinarli ekanini isbotlaydi. Tasavvur qilaylik, muhtoj bo'lgan kasb vakili(maqolada duxtur misolida) turkiy yoki forsiy tilni bilmaydi. Biz esa uning tilini. "*Oyina*" jurnalining 1913-yildagi 1-sonida Behbudiy qalamiga mansub "*Ikki emas, to'rt til lozim*" maqolasi e'lon qilindi. "*Holbuki, ul zoti bobarakot payg'ambarimiz quvvati hokima egasi edilar. Yahudiylar mahkum va tobe' edi. Al-on Rusiya hokim, bizlar anga tobe' va o'z tirikligimiz uchun alar xatini bilmoq zarur va hadisi sharif dalolatincha durustligig'a joyi inkor bo'lmasa kerakdur.*" Bu jumlalar orqali bir xalq ustidan boshqa bir xalq hukronlik o'rnatsa, o'sha xalq tilini bilishi kerakligi ochiqlanadi. Hozirgi mustaqillik zamonida esa, boshqa xalqlarning ilg'or tajribalarini o'rganish va uni hayotga tatbiq etish uchun lozimdir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Behbudiy ushbu maqolasida milliy g'oya

Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari

– millatga o‘zligini anglatish, uni taraqqiy etgan xalqlar darajasiga yuksaltirish masalasiga alohida e'tibor qaratgan. Vatan va millat taraqqiyotiga to‘sinq bo‘layotgan illatlar qattiq tanqid qilingan. Zamon talablaridan kelib chiqib, millat hayotining barcha jahbalarini isloh qilish masalasi kun tartibiga qo‘yilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. 3-nashri.Toshkent, “Ma’naviyat” -2006;
2. O‘zbek milliy uyg‘onish adabiètiga materiallar. Toshkent, “Universitet” -2004;
3. <https://oyina.uz/uz>